

**O‘ZBEKISTONDA QONUN USTUVORLIGINI TA’MINLASHNING
DEMOKRATIK ASOSLARI**

**ДЕМОКРАТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ
ВЕРХОВЕНСТВА ЗАКОНА В УЗБЕКИСТАНЕ**

**DEMOCRATIC FOUNDATIONS OF ENSURING THE RULE OF LAW
IN UZBEKISTAN**

Meliqo‘ziyev Azizbek Zarifjon o‘g‘li
Toshkent Davlat Tibbiyot universiteti, 2-kurs talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolada qonun ustuvorligi har qanday demokratik jamiyatning bosh tamoyili hisoblanishi, O‘zbekistonda keyingi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlarning markazida ham aynan qonun ustuvorligini ta’minlash, sud-huquq tizimini modernizatsiya qilish, inson huquq va erkinliklarini kafolatlash kabi ustuvor yo‘nalishlar turishi nazariy jihatdan yoritib berilgan. Davlat va jamiyat taraqqiyotining huquqiy poydevorini mustahkamlash esa jarayonning muhim ko‘rinishi sifatida namoyon bo‘lishi ham maqolaning tub mohiyatini aks ettiradi.

Аннотация

В данной статье теоретически обосновывается тот факт, что верховенство права считается основным принципом любого демократического общества, и что такие приоритетные направления, как обеспечение верховенства закона, модернизация судебной системы, обеспечение прав и свобод человека, находятся в центре реформ, реализуемых в Узбекистане в последние годы. Тот факт, что укрепление правового фундамента развития государства и общества является важным аспектом этого процесса, также отражает фундаментальную суть статьи.

Abstract

This article theoretically highlights the fact that the rule of law is considered the main principle of any democratic society, and that the priority areas such as ensuring the rule of law, modernizing the judicial system, and guaranteeing human rights and freedoms are at the center of the reforms being implemented in Uzbekistan in recent years. The fact that strengthening the legal foundation of the

development of the state and society is an important aspect of the process also reflects the fundamental essence of the article.

Kalit so‘zlar: hokimiyat, inson qadri, fuqaro, sud, islohot, tamoyil, qonun, xalq, demokratiya, jarayon, sudya.

Ключевые слова: власть, человеческое достоинство, гражданин, суд, реформа, принцип, закон, народ, демократия, процесс, судья.

Keywords: authority, human dignity, citizen, court, reform, principle, law, people, democracy, process, judge.

Qonun ustuvorligi tushunchasi va uning demokratik mohiyati. Qonun ustuvorligi — bu davlatning barcha organlari, mansabdor shaxslari, jamiyat institutlari va fuqarolarning amalda qonunlarga qat’iy rioya etishi va qonun oldida teng bo‘lishini anglatadi. Demokratik jamiyatlarda qonun hukmronligi:

- inson qadrini yagona oltin me’yor sifatida e’tirof etish;
- hokimiyatlar bo‘linishi prinsipiga amal qilish;
- sud hokimiyatining mustaqilligini ta’minlash;
- fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtirokiga tayanishi bilan ifodalanadi.

O‘zbekistonda qonun ustuvorligini ta’minlash yo‘lidagi islohotlar haqida to‘z taladigan bo‘lsak, bular: 1. Konstitutsiyaviy islohotlar. 2023 yilgi mamlakat Konstitutsiyasida qonun ustuvorligi tamoyili yanada mustahkamlandi. Xususan: «Davlat xalq irodasini ifoda etadi» degan norma asosiy qonunning ustuvor demokratik mohiyatini belgilab berdi. Sud hokimiyatining mustaqilligini kafolatlovchi normalar kengaytirildi. Inson huquqlari va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari kuchaytirildi.

2. Sud-huquq tizimidagi islohotlar. So‘nggi yillarda sud tizimida quyidagi bir qator demokratik o‘zgarishlar amalga oshirildi: Sudyalarni tanlash va lavozimga tayinlash jarayonlarining ochiqligi va shaffofligi ta’minlandi. “Xabeas korpus” instituti to‘liq amalda, ushlab va qamoqqa olishga sud sanksiyasi talab qilinadi. Sud qarorlarining ochiq e’lon qilinishi va fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatlari kengaytirildi. Odil sudlovga erishishda advokaturaning roli kuchaytirildi.

3. Inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari yuzasidan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston inson huquqlarini himoya qilish sohasida xalqaro standartlarga mos tizim yaratmoqda; Ombudsman institutining vakolatlari

kengaytirildi; Inson huquqlari bo'yicha Milliy strategiya qabul qilindi; Fuqarolarning davlat organlari faoliyati yuzasidan shikoyat va murojaatlarini qabul qilishda interaktiv xizmatlar joriy etilgan.

4. Korrupsiyaga qarshi kurash va huquqiy shaffoflik bo'yicha: Qonun ustuvorligini ta'minlashda korrupsiyaga qarshi kurash muhim ahamiyatga egaligi: Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi tashkil etilishi; Ochiq ma'lumotlar portali, davlat xaridlari shaffofligi, elektron xizmatlar soni oshirildi; Mansabdor shaxslarning mas'uliyati va javobgarligi kuchaytirilishini misol qilib keltirish mumkin. O'zbekistonda Qonun ustuvorligining demokratik tamoyili quyidagi demokratik asoslarga tayanadi: 1. Hokimiyatlarning bo'linishi - Qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatlari o'rtasida muvozanat mexanizmlari yaratilgan. 2. Sud hokimiyatining mustaqilligi - Sudyaning daxlsizligi, ularni ta'lim, malaka oshirish tizimining kuchaytirilishi odil sudlovning kafolatidir.

3. Fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki - Nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va blogerlar jamiyat nazoratini amalga oshirmoqda.

4. Qonun ijodkorligi jarayonlarining ochiqligi - Qonun loyihalarini muhokama qilish jarayonlariga keng jamoatchilik jalb etilmoqda.

5. Inson huquqlari va erkinliklari ustuvorligi - Barcha islohotlar "Inson qadri uchun" tamoyili asosida amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda qonun ustuvorligini ta'minlash demokratik davlati rivojlanishining eng muhim shartlaridan biridir. Bu jarayon mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning poydevorini tashkil etadi. Sud-huquq tizimining mustaqilligi, inson huquqlarining kafolatlanishi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi — barchasi O'zbekistonda qonun ustuvorligining demokratik asoslaridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: «O'zbekiston», 2023.
2. "Sudlar to'g'risida"gi qonun. – T.: Adliya vazirligi nashri, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasining "Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi to'g'risida"gi Qonuni. – T.: 2020.
4. Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni. – T.: 2017.
5. Mirziyoyev Sh. M. "Yangi O'zbekiston strategiyasi". – T.: «Uzbekistan», 2021.

6. Jo‘rayev N., Abdug‘aniyev X. Demokratiya va huquqiy davlat nazariyasi. – T.: TDYUU nashri, 2020.
7. Mamatqulov X. Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati. – T.: Akademiya, 2019.
8. Karimov A. Sud-huquq islohotlari va ularning amaliy natijalari. – «Yurist axborotnomasi», 2022, №4.
9. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi rasmiy sayti – Qonun loyihalari va muhokamalari.
10. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi – Lex.uz normativ-huquqiy hujjatlar milliy bazasi.